

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MAYMUNJON O‘SIMLIGINING CHESTER THORNLESS NAVINING MEVA VA BARGLARINING KIMYOVIY TARKIBINI O‘RGANISH

Ismoilova Husnida Umid qizi

Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo‘limi

Biotexnologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maymunjon o‘simligining morfologiyasi, shifobaxsh xususiyatlari, yetishtirish texnologiyasi hamda mevalarning kimyoviy tarkibi haqida ma'lumotlar berilgan hamda ayrim muhim maymunjon o‘simligining navlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maymunjon o‘simligi, rezavor meva, “Chaster Tornless”, “Texas”, “Chester”, vitamin C, flavonoidlar.

Hozirgi kunda Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida maymunjonning 3 ta: “Texas”, “Chester” va “Chaster Tornless” navlarining qimmatli xo‘jalik-biologik xususiyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada “May Agro” fermer xo‘jaligi bilan hamkorlikda ishlanmoqda.

“May Agro” fermer xo‘jaligi 2019-yilda tashkil topgan bo‘lib, 1 gektar yer maydoniga maymunjon o‘simligining “Chester” navini o‘stirmoqda. Ushbu nav 3×1,20 sm sxemasida ekilgan bo‘lib, tomchilatib sug‘orish tizimi yordamida sug‘oriladi. Institutning “Mevali ekinlar seleksiyasi va nav o‘rganish” bo‘limi ilmiy xodimlari fermer xo‘jaligiga borib, doim o‘z maslahatlarini berib borishadi. Tuproq tahlillarini o‘tkazish hamda mevalarning kimyoviy tarkibini o‘rganishda amaliy yordam berishadi.

Maymunjon – malina avlodidan bo‘lgan o‘simlikdir. O‘zbekistonda daryo bo‘ylarida, sug‘orish shahobchalari yoqalarida juda ko‘p o‘sadi. Madaniy holda kamdan-kam uchraydi. Maymunjon mevasining tarkibida har xil vitaminlar mujassam, masalan: karotinoid, foliy kislotasi (vitamin B9), C vitamini, K vitamini hamda oz miqdorda E vitamini mavjud. Bundan tashqari maymunjon mevasida minerallardan kaliy, mis, kalsiy, magniy va sink bor. Maymunjon ildiz bachki chiqarmaydi, yer bag‘irlab o‘sadigan novdalari esa bo‘g‘imlaridan yoki uchlaridan ildiz otadi va yangi tupchalar hosil qiladi. Maymunjonning yirik mevali serhosil



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

navlari I.V.Michurin tomonidan ixtiro qilingan. Bu navlar ba'zi havaskorlar barpo etgan bog'larda o'sadi.

Maymunjonning foydali tomonlari.

Maymunjon shirin-nordon ta'mga ega rezavor meva bo'lib, uning ajoyib ta'mi hammaga yoqadi. Bundan tashqari maymunjon juda ham foydali mahsulot hisoblanadi: 2000 yil avval bu mevani qadimiy Gretsiyada dorivor vosita deb hisoblashgan. U quyidagi holatlarda yordam beradi:

U chanqoqni bostirib haroratni tushuradi;

U kasalliklardan so'ng organizmni tiklanishiga yordam beradi;

Oshqozon-ichak tizimi faoliyatini yaxshilaydi;

U asab tizimini mustahkamlaydi va xotirjam uxlashga yordam beradi;

Fikrlash qobiliyati va xotirani mustahkamlaydi;

Maymunjon o'zida ko'pgina antioksidantlarni saqlashi sabab ham, organizmdan zararli toksinlarni chiqarib tashlaydi;

Maymunjonning zararli tomonlari

Maymunjonni qo'llashga qarshi ko'rsatmalar juda kam. Eslatmoq joizki, bu mahsulot allergiyani chaqirish ehtimoli ham yo'q emas. Bundan tashqari, u o'zida ko'p kislotani saqlashi sabab ham, uni ko'p iste'mol qilish yaramaydi.

Maymunjon vazn yo'qotish uchun ayni muddao

Maymunjon o'zida A, C, B guruh vitaminlari, mineral va to'qimalarni saqlashi sabab ham, ozishni xohovchilar uchun u ajoyib mahsulot sanaladi. Uning kaloriyasi kam bo'lishiga qaramay, u to'qlik hissini uzoq vaqtgacha ushlab turadi.

100 gramm maymunjonning ozuqaviy qiymati 31 kKalni tashkil qilib, 2 grammni oqsillar, 6.4 grammni uglevodlar va 0 grammni yog'lar tashkil qiladi.

Maymunjonni to'g'ri saqlash.

Maymunjonni iste'mol qilishdan avval uni yuvish tavsiya qilinadi. Ammo shuni unutmangki, yuvilgan meva tez buziladi, shuning uchun ham uni iste'mol qilishdan biroz avvalgina yuving. Maymunjon sovutgichda 4 kungacha saqlanadi. Bunda uni qog'oz sochiq solingan konteyner ichiga bir qavat qilib terib chiqing, shunda ortiqcha suyuqlikni qog'oz o'ziga shimdirib, tez buzilishini oldini oladi.

Maymunjonni saqlash usullari.

Agar muzlatgichingizda yetarlicha joy bo'lmasa, unda maymunjonlarni bankaga yopib qo'ying. Bunday mahsulotni qaynatish kerak emasligi sabab ham, undagi barcha vitaminlar saqlanib qoladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Maymunjonlarni yuvib quriting. 1:1 teng taqsimda ustidan shakar sepib, blenderda yoki go'shtqiyimalagichda maydalang va shakari erib ketishi uchun bir kecha salqin joyga olib qo'ying. Ertasi kuni sterillangan bankalarga solib, qopqog'ini yoping va sovutgichga olib qo'ying. Bunday mahsulotlar sovutgichda 1 yilgacha yaxshi saqlaniladi.

Xulosa:

Mevasi tutga o'xshash g'uj, sersuv, shirin-nordon, rangi qoramtir, qizil. Urug'i mayda. Meva tarkibida 4—6% qand, 0,8—1,4% organik kislotalar, C vitamini va karotin mavjud. Mevasi yangiligida yoki quritib yeyiladi, qiyom tayyorlanadi, konserva sanoatida ishlatiladi. Ildizpoyasi va barglari tibbiyotda qo'llaniladi. Mayminjonning mevalari yirik va shirin bo'lgan ayrim yovvoyi turlari madaniylashtirilib, seleksiya navlari chiqarilgan (300 dan ortiq navlari bor). Maymunjon ko'chatlari erta bahorda yoki kuzda 2x0,75 m sxemada ekiladi. Maymunjon novdadari sim-bagazlarga bog'lanadi. Hosildorligi 50—70 s/ga. Maymunjon 12—15 yil yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Numonjonov M.G., Parpiyev A.T., Bozorboyev Sh.A., Vakhobova Sh.A. Alkaloids in some medicinal plants (CAPPARIS L, HYPERICUM L, ACHILLEA L.) their structure and significance. SCIENCE AND EDUCATION scientific journal ISSN 2181-0842 volume 1, ISSUE 4. July 2020[4]
- 2.Bozorboyev Shokhrukhbek, Hamzaliyeva Madinabonu.TECHNOLOGY OF GROWING, HARVESTING AND STORAGE OF LEMON PLANTS. Volume 2 Issue 9, September 2022 ISSN 2181-2020
- 3.www.ziyonet.uz[3]
- 4.No'Monjonov Muhiddin Gulomjon, O. G., O'G'Li, P. A. T., & O'G'Li, B. S. A. (2020). Oddiy bo'yomodaron o'simligining morfo-fiziologik tavsifi va shifobaxsh xususiyatlari. Science and Education, 1(4), 26-29.
- 5.Numonjonov, MG, Parpiyev, AT, Numonjonova, MG, & Bozorboyev, SA (2021). Civandon (achillea millefoliuml.) o'simligidagi vitaminlar va ularning inson salomatligidagi ahamiyati. ACADEMICIA: Xalqaro multidisipliner tadqiqot jurnali, 11 (6), 912-917.
- 6.Xolmatov H.X., Ahmedov O. Farmakognoziya. - 1,2 qism.- Toshkent.: Fan, 2007.[6]
- 7.Xolmatov X. X., Habibov. O'zbekiston dorivor o'simliklari. Toshkent, 1971.[7].

